

**NAVOIY VILOYATI QOZOQLARINING DAFN MAROSIMI BILAN  
BOG'LIQ AN'ANALARI**

**Shodiqulov Eldor Sherzodovich**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası

o'qituvchisi

*Annotatsiya:* mazkur tezisda Navoiy viloyati qozoqlarining shakllanish jarayoni va ularning dafn marosimlarining etnomadaniy xususiyatlari tarixiy-etnografik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, dafn marosimlarida qadimiy e'tiqodiy qarashlar va islomiy an'analarning uyg'unlashuvi hamda qozoqlarning dafn marosimlarning o'ziga xos xususiyatlar dala etnografik tadqiqotlar asosda tahlil etilgan.

*Kalit so'zlar:* Navoiy viloyati, qozoqlar, migratsiya, dafn marosimlari, etnomadaniy xususiyatlar, tarixiy-etnografik tahlil, milliy an'analar.

**Kirish**

Qozoq xalqining dafn marosimlari turkiy xalqlarning qadimiy e'tiqodiy qarashlari, islomiy an'analari hamda ko'chmanchilarning turmush-tarzining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllangan murakkab marosimiy tizim hisoblanadi. Markaziy Osiyo hududida istiqomat qilgan qozoq qabilalarining tarixiy taraqqiyoti jarayonida dafn bilan bog'liq urf-odatlar nafaqat diniy, balki ijtimoiy va ma'naviy hayotning muhim tarkibiy qismiga aylangan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda siyosiy vaziyat keskin o'zgardi. Hududning katta qismi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Natijada an'anaviy ko'chmanchi xo'jalik tizimi izdan chiqa boshladi.

Qozoq qabilalarining bir qismi yaylov va qishlov hududlarining torayishi sababli janubiy hududlarga siljidi. Xususan, Zarafshon vodiysi, Qizilqum va Buxoro amirligi chegaralariga tutash hududlar chorvachilik uchun qulay makon sifatida tanlandi. Bu davrda ko'chish asosan ixtiyoriy xo'jalik migratsiyasi xarakteriga ega bo'lgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qozoqlar tarixan turli aralash jamoalarda yashagan bo'lsalar-da, Navoiy viloyati hududiga qozoq aholisining ko'chib kelishi bir necha tarixiy bosqichlarda amalga oshgan. Bu jarayon asosan XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bugungi Navoiy viloyati hududi tarixan Buxoro amirligi, keyinchalik Turkiston general-gubernatorligi va Sovet davrida Samarqand hamda Buxoro viloyatlari tarkibida bo'lgan.

Navoiy viloyatida yashovchi turli etnik guruhlarining orasida qozoq xalqi ham ko'p yillardan buyon yashab kelmoqda. Tabiiyki, bu hududda yashovchi xalqlarning dafn marosim an'analari bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Xususan, dafn marosimlaridagi o'xshashliklar va farqlarni ham kuzatish mumkin.

Dala tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, qozoqlar asosan qishloq joylarida istiqomat qilishadi va an'analari vaqt, zamon o'tishi bilan o'zgarib borishini aytib o'tsakda lekin dafn marosimlari o'zining bardoshlilik bilan ajralib turadi. Uzoq yillar davomida mintaqadagi qozoq xalqi o'zbeklar bilan yonma-yon yashab kelishgan biroq ayrim o'ziga xos an'alarini ma'lum darajada saqlab qolibgan.

Qozoq xalqining asosiy e'tiqodiy dini islom dini hisobga olsak ba'zi bir an'analari dinga ziddek ko'rinishi mumkin. Masalan, musulmonchilik an'alariga muvofiq inson ertalab yoki tushdan so'ng vafot etsa shu kunning o'zida dafn qilinishi kerakligi aytiladi. Dala tadqiqotlar natijasida shuni guvox bo'ldik, qozoq

xalqining ba'zi hududlarda dafn marosimi o'sha kunning o'zida o'tkazilmaydi, uzoq qarindoshlari kelgunga qadar kutiladi. Marhumni odatda qora uyda bir kecha yoki uch kungacha saqlanib turilishi mumkin. Qozoqlar bu davrni "kutish davri" ham deb atashadi. Bu o'ziga xos an'anaviy xususiyat deb ta'kidlash lozimdir.

Qozoqlarning an'anaviy dafn marosimlarida oldin dastlab marhum yotishi uchun qora uy tiklanadi va an'anaga ko'ra marhum sharafiga bir mol yoki boshqa jonliq so'yiladi. Dafn marosimida qatnashuvchi qo'shnilar va "qo'noq" ya'ni mehmonlar uchun dasturxon tuzaladi. Bir jonliq so'yish marhum inson oilasining qurbi yetmasa ham so'yish kerakligi aytiladi, chunki bu marhumning bu dunyoda yaxshi inson bo'lgani va moddiy ochko'zligi yo'qligi, boyligini xalq bilan ulashadi degan ma'noni anglatadi.

Motam marosimida ayollarning kiyadigan va o'raydigan ro'moli hududlarga qarab farq qiladi. Navoiy viloyatining Tomdi va undan yuqori hududlarda ayollar turli rangdagi ro'mol va ko'ylak kiyishadi, lekin o'zbeklar bilan an'analari aralashgan qozoqlar yashaydigan hududlar Konimex yoki Zafarobod tumanlarida ayollar motam marosimlarida to'q rangli kiyim va oq ro'mol o'rashadi. Erkaklar asosan boshga qozoq milliy do'ppisi kiyishadi.

Qozoqlar dafn marosimida odatga ko'ra, marhumni yuvish marosimida yetti kishi ishtirok etadi. Qatnashuvchi insonlar asosan aka – uka, o'g'illardan va yaqin qarindoshlardan bo'ladi chunki maxsus mayit yuvuvchi bo'lmaydi. Dafn marosimiga keluvchi mehmonlar marhumning oilasiga miqdoridan qat'iy nazar yordam uchun qo'lidan kelguncha pul berib ketishadi. Dafn marosimi so'ngida yerga qo'yishda ham o'zbek musulmonlaridan farqli ravishda qabr qazish jarayoni ham farq qiladi. Dala tadqiqotlari davomida qabr qazuvchi va qabr uchun tosh

yasovchilarning ta'kidlashicha, qozoq xalqi dafn marosimi uchun qabr qazilganda lahat qilib qazish bo'lmaydi chunki qozoqlar asosan cho'l hududlarida yashaydi va bu qum cho'kishi bilan izohlanadi.

Marosimlarning nafaqat diniy, balki ekologik va ijtimoiy omillar bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi. Umuman olganda, Navoiy viloyati qozoqlarining dafn marosimlari etnomadaniy merosning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning tarixiy xotirasi, diniy qarashlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi. Mazkur marosimlarni ilmiy o'rganish hududiy etnik jarayonlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rinida shuni ta'kidlash lozimki tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Navoiy viloyati qozoqlari uzoq vaqt davomida o'zbek aholisi bilan yonma-yon yashagan bo'lishiga qaramay, o'z milliy-madaniy xususiyatlarini, xususan dafn marosimlariga oid an'alarini saqlab qolishgan. Shuningdek, mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti (cho'l hududi) dafn marosimining ayrim jihatlariga, xususan qabr qazish uslubiga ham ta'sir ko'rsatgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdirahmanov Q. Qozoq xalqining urf-odat va marosimlari. – Almati, 2005.
2. Dala yozuvlari. Navoiy viloyati, Tomdi tumani, Suketi qishlog'i. 2024-yil.

3. Dala yozuvlari. Navoiy viloyati, Tomdi tumani, Tomdi qishlog'i.  
2024-yil.
4. Dala yozuvlari. Navoiy viloyati, Tomdi tumani, Tomdi qishlog'i.  
2025-yil.
5. Iskandarov Sh.A. Markaziy Osiyo xalqlarining etnomadaniy aloqalari.  
– Toshkent, 2022.
6. Tursunov S. Markaziy Osiyoda etnik jarayonlar va migratsiya  
masalalari. – Toshkent: Universitet, 2012.